

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLAshNING GLOBAL VA MILLIY JIHATLARI

Yusupov Muxiddin Soatovich

Oriental universiteti professori v.b., PhD

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash mezonlari va uni mustahkamlash mexanizmlari, jumladan agrar sektorda tarkibiy o'zgarishlarni amalgaloshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va raqamlashtirish, aqli qishloq xo'jaligi konsepsiyasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Tayanch iboralar: barqaror rivojlanish, pandemiya, global inqirozlar, oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat ta'minoti zanjiri, qo'shilgan qiymat zanjiri, aqli qishloq xo'jaligi; qishloq xo'jaligini raqamlashtirishb ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va raqamlashtirish, “Aqli qishloq xo'jaligi” va “Qishloq xo'jaligi-4.0” konsepsiyalari.

KIRISH

Insoniyat tarixining butun tadrijiy rivojlanishi davomida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi har qanday davlatning siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri bo'lib kelgan. Keyingi yillarda butun jahonni tashvishga solayotgan global muammolardan biri sifatida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror va uzlusiz ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash kun tartibiga qo'yilmoqda. Mamlakatimizda bu masalaga oid keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar boshlanganiga ko'p vaqt bo'lgan emas va etarli deb bo'lmaydi. Shu tufayli oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish asosida tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

ASOSIY QISM

Oziq-ovqat xavfsizligiga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha birinchi marta o'tgan asrning 70-yillarida iste'molga kirib kelgan. 1996 yilda Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha butunjahon sammitida Jahon banki taklif etgan ta'rifga ko'ra “barcha insonlarning faol va sog'lom turmush tarzi kechirishi uchun, o'zlarining ehtiyojlariga mos, etarli hajmdagi, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatlarni har doim olishga jismoniy va iqtisodiy jihatdan qurblari etishi – oziq-ovqat xavfsizligini anglatadi” [1]. Keyinchalik 2009 yilda bo'lib o'tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha butunjahon sammitida oziq-ovqat xavfsizligini baholashning 4 jihatli belgilab berildi (1-jadval).

BMT Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkilotining (FAO) 1996 yildagi Rim deklaratasiyida qabul qilingan Oziq-ovqat xavfsizligi Konsepsiyasida uning asosiy tamoyillari belgilab berilgan: oziq-ovqat xavfsizligi – bu faqat oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlash emas; agar mamlakat qiyosiy ustunliklarga ega bo'lsa, o'z ehtiyojlar uchun etarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishi lozim; mamlakat zarur hollarda o'z fuqarolarining ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini import qilib olib kirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak; hukumat o'z fuqarolari uchun xavfsiz oziq-ovqatni fizik va iqtisodiy jihatdan ochiqligini ta'minlashi

20-May, 2025-yil

lozim; oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda aholining o'sib va o'zgarib borayotgan individual ehtiyojlarini hisobga olish zarur [2].

1-jadval

**BMT Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) tomonidan ishlab
chiqilgan oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari**

| Jihatlari | Tushunchalar izohi | Ko'rsatkichlari |
|-----------------------------------|---|--|
| Oziq-ovqat mavjudligi | Jismoniy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi, u ishlab chiqarish hajmi, zaxiralar va oziq-ovqat eksporti/ importi saldosiga bog'liq. | - oziqa ratsioni o'rtacha energetik qimmatining etarligi; - o'rtacha yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmlari, zaxiralar miqdori va boshq; - oziqdan olinadigan oqsil moddalar, vitaminlar va kaloriyalar. |
| Oziq-ovqatni olish imkoniyati | Jismoniy va iqtisodiy jihatdan oziq-ovqat olish imkoniyatlari. Iqtisodiy jihatdan – aholi ixtiyoridagi daromadlar, oziq-ovqat narxları va ijtimoiy himoyalash darajasi bilan; Jismoniy jihatdan – bozorlar faoliyatini ta'min-lovchi infratuzilmalar mavjudligi bilan aniqlanadi. | - jami yo'llar uzunligida qattiq qoplamali yo'llar salmog'i; - avtomobil va temir yo'l tarmoqlarining zichligi; - xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YaIM; - ichki oziq-ovqat mahsulotlari narxları indeksi; - to'yib ovqatlanmaslikning tarqal-ganligi; - kam daromadli oilalar byudjetida oziq-ovqat xaratjatlarining salmog'i; - oziq-ovqat etishmasligi va kam quvvatli oziq-ovqat iste'moli ko'lami. |
| Oziq-ovqat iste'moli | Oziq-ovqat mahsulotlari-da mavjud turli oziqa moddalarini inson orga-nizmida so'riliishi. Oziqa modda-lari va energiyani etarli iste'mol qilish ovqat tayyorlash, ovqatlanish rejimi va parvarishlash usullarini qo'llash, oziq-ovqatlarning uy xo'jaligi doirasi da taqsimlanishi orqali ta'minlanadi. | - jihozlangan suv ta'minoti va sanitariya-texnik uskunalar bilan ta'minlanganlik; - 5 yoshgacha bo'lgan kamquvvatlikdan aziyat chekuvchi, bo'yi o'sishi orqada qolayotgan va vazni etarli bo'limgan bolalar salmog'i; - katta yoshli aholi o'rtasida vazni etarli bo'limganlar salmog'i; - homilador ayollar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida kamqonlikning tarqalganlik darajasi; - aholi o'rtasida A vitamini va yod etishmasligi tarqalganlik darajasi; |
| Oziq-ovqat ta'minoti barqarorligi | Vaqt oralig'ida yuqorida keltirilgan boshqa uchta omillarning barqarorligi. Agar inson vaqtiga bilan oziq-ovqatlarni etarli miqdor va sifatda ololmaslik xata-riga duch kelsa (ishsizlik, inflyatsiya va boshqa omillar ta'sirida) u oziq-ovqat xavfsizligi jihatdan zaif hisoblanadi. | - g'alla importiga qaramlik darajasi; - sug'orishga yaroqli haydaladigan erlearning salmog'i; - oziq-ovqat importining oziq-ovqat eksportidan oshgan qismi hajmi; - siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik/terrorizm holatlari yo'qligi; - oziq-ovqatlar narxlarining o'zgarib turishi; - aholi jon boshiga oziq-ovqat ishlab chiqarishning tebranishi; - aholi jon boshiga oziq-ovqat bilan ta'minlashning tebranishi. |

Состояние рынков сельскохозяйственной продукции: 2015-2016 годы. Рим, 2015.

– s. 20-21. asosida muallif tomonidan tuzilgan

AQShning The Economist Intelligence Unit tadqiqtolar markazi tomonidan har yili e'lon qilinadigan va 2020 yilda 107 ta mamlakat qatnashgan “Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (Global Food Security Index)”da O'zbekiston 6,7 ball to'plab, dunyo bo'yicha 30 o'rinni egalladi va past darajada ochlikka ega mamlakat sifatida e'tirof etildi [3].

Mazkur indeksni hisoblashda oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyati, foydaliligi, sifati va xavfsizligi hisobga olinadi.

20-May, 2025-yil

Agrar sektor respublikada oziq-ovqat ta'minotining asosiy manbalari sifatida qaraladi. Bu tarmoq aholiga asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini etkazib beradi. O'zbekiston Respublikasida 2012-2022 yillarda aholi jon boshiga asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori o'sib borish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, shu davrda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi sabzavot bo'yicha 20,0, kartoshkada 39,8, polizda 42,6, meva va rezavorlarda 22,1, tirik vaznda go'sht etishtirishda 37,1 va sutdada 32,9 % o'sishni qayd etgan (1-jadval).

1-jadval

Respublikada aholi jon boshiga asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

| Ko'rsatkichlar | O'ldcho v birligi | 2012 yil | 2014 yil | 2016 yil | 2018 yil | 2020 yil | 2022 yil | 2022 y. 2012 y.ga nisb., %da |
|---|-------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|------------------------------|
| Qishloq xo'jaligini YalMDagi salmog'i | % | 32,6 | 31,8 | 32,1 | 30,0 | 26,8 | 25,1 | -7,1 f.p. |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotini o'sish sur'atlari | % | 107,2 | 106,3 | 106,3 | 100,2 | 102,9 | 103,6 | -3,6 f.p. |
| Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish | | | | | | | | |
| Don | kg | 222,1 | 226,2 | 259,4 | 198,3 | 221,0 | 224,1 | 100,9 |
| Sabzavot | kg | 260,9 | 301,9 | 319,8 | 296,2 | 301,8 | 313,1 | 120,0 |
| Kartoshka | kg | 69,1 | 79,7 | 87,6 | 88,4 | 91,0 | 96,6 | 139,8 |
| Poliz | kg | 47,6 | 55,1 | 64,2 | 55,7 | 61,8 | 67,9 | 142,6 |
| Meva va rezavorlar | kg | 68,9 | 81,0 | 82,0 | 82,1 | 81,4 | 84,1 | 122,1 |
| Uzum | kg | 40,5 | 46,9 | 50,7 | 48,2 | 46,5 | 49,4 | 122,0 |
| Go'sht (tirik vaznda) | kg | 55,8 | 61,4 | 68,2 | 73,7 | 73,6 | 76,5 | 137,1 |
| Sut | kg | 245,5 | 278,8 | 304,7 | 317,6 | 320,7 | 326,2 | 132,9 |
| Tuxum | dona | 130 | 164 | 193 | 226 | 227 | 228 | 175,4 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

hamjamiyati, jumladan BMT doirasida barqarorlik va taraqqiyot yo'liga g'ov sifatida baholanib, jiddiy xavotirlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, 2000 yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining sammitida qabul qilingan "Ming yillik Deklaratsiyasi"da XXI asrda amalga oshirilishi mo'ljallangan 8 ta eng asosiy global "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"ning birinchisi sifatida "O'ta qashshoqlik va ochlikka barham berish" belgilab berilgan edi. Jumladan:

1. Jahonda yuz berayotgan pandemiya va global inqirozlar, er yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtaqidagi tafovut tufayli dunyoning bir qator mamlakatlari va hududlarida oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib bormoqda.

2. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida oziq-ovqat ta'minotida uzilishlar yuzaga kelishi oqibatida jahon bozorlarida narx-navo ko'tarilishi kuzatilmoqda.

3. Yer shari aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmasligi, oziq-ovqat tarkibida eng asosiy mikroelement va vitaminlar etishmasligi oqibatida 860

20-May, 2025-yil

milliondan ortiq insonlar to‘yib ovqatlanmasligi oqibatida, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekishi kabi muammolar dunyo barqarorligiga jiddiy xavf-xatar tug‘dirmoqda.

4. Atrof-muhit va erlarning ekologik jihatdan buzilishi davom etayotgani, kimyoviy moddalar, mineral o‘g‘itlar va pestitsidlarni tinimsiz ishlatilishi, iqlim o‘zgarishlari, tez-tez takrorlanayotgan qurg‘oqchilik va suv resurslari taqchilligi, jumladan, sug‘orish uchun erosti suvlarining tugab borayotgani oqibatida oziq-ovqat taqchilligi yanada kuchaymoqda.

5. Urbanizatsiya, ya’ni shaharlarning tinimsiz kengayib borish jarayonlari, aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘chishi bilan bog‘liq muammolar, sanoat va boshqa tarmoqlarning jadal rivojlanishi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishga yaroqli erlarning muttasil qisqarib borishiga olib kelmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Global oziq-ovqat xavfsizligi doirasida bizning mamlakatimizda ham bu masalani ijobjiy hal etishga bir qator omillar va muammolar ta’sir ko‘rsatishiga e’tiborni qaratmoqchimiz.

1. Mamlakatimiz MDH, shu jumladan Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasida aholi soni, uning yillik o‘sish sur’atlari hamda zichligi jihatidan eng yuqori o‘rinlardan birini egallaydi. Respublikamiz aholisi yiliga o‘rtacha 550-600 ming kishiga ko‘payib, BMTning proqnozlariga qaraganda 2050 yilga borib 50 mln. kishiga etishi mumkin. Aholi soni, uni o‘sish sur’atlari va zichligining yuqoriligi mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga muttasil o‘sib boruvchi talabini muntazam va barqaror ta’minalash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi.

2. O‘zbekiston aholisi soni shiddat bilan o‘sib borayotgan bir sharoitda qishloq xo‘jaligiga yaroqli ekin maydonlarining cheklanganligi oziq-ovqat ta’mnoti masalasini yanada keskinlashtiradi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 20,2 mln hektar erlarning atigi 20,7 foizi sug‘oriladigan erlar hisoblanadi. So‘nggi 15 yil mobaynida aholi jon boshiga sug‘oriladigan erlar 24 %ga (0,23 dan 0,16 gektargacha) kamaygan. Aholi sonining o‘sishi, suv ta’mnoti hajmining qisqarishi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlarning boshqa er fondi toifalariga o‘tishi natijasida kelgusi 30 yil mobaynida sug‘oriladigan er maydonlari yana 20-25 foizga qisqarishi mumkin. Bu kelgusida aholini oziq-ovqat bilan ta’minalash masalasi yanada murakkablashishidan dalolat beradi.

3. Respublikamizda mavjud ekin maydonlarining aksariyat qismi er osti sizot suvlarining yaqinligi va boshqa sabablarga ko‘ra u yoki bu darajada sho‘rlangan. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaliqi vazirligining ma’lumotlariga qaraganda, 2020 yilda sug‘oriladigan erlarning 45,0 %i u yoki bu darajada sho‘rlangan. Sug‘oriladigan erlar sho‘rlanganlik darjasini yuqoriligi va sifat ko‘rsatkichlarining pastligi (100 ballik shkala bo‘yicha 55 ball bonitetga ega) ekinlar hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, erlarning sho‘rini yuvish, tuproq unumdarligini oshirish bilan bog‘liq katta miqdorda qo‘simecha sarf-xarajatlar qilishga olib keladi.

4. Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismi sug‘oriladigan erlarda etishtiriladi. Ammo, respublikamizning transchegaraviy suv oqimlari quyi qismida joylashganligi, shuningdek mamlakatimizda foydalilaniladigan suv resurslarining faqatgina

20-May, 2025-yil

20,0 %i o‘zimizda, qolgan 80,0 %i qo‘shti Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida shakllanishini hisobga olsak, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish uchun suv ta’minoti masalasi naqadar murakkab ahvolda ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2040 yilga borib, Amudaryo va Sirdaryodagi suv oqimlari o‘zgarmagan taqdirda respublikamizda suv taqchilligi 15 %ni, suv oqimi kamaygan taqdirda esa 33 %ni tashkil etishi mumkin [4].

Yer usti va er osti suv zaxiralarining taqchilligi sharoitida sug‘orish usullarining eskiligi hamda sug‘orish uchun ko‘p suv talab qilishi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yo‘lida yana bir to‘siq hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash tizimida: oziq-ovqat mahsulotlari, bиринчи navbatda, meva-sabzavotlarni daladan iste’molchiga etkazib berishda nobudgarchiliklar mavjud; qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash darajasi talab darajasida emas; qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoatini modernizatsiyalash, texnik-texnologik qayta jihozlash masalalari to‘liq o‘z echimini topmagan; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining saqlash va tashish imkoniyatlari yuqori bo‘lgan navlari, urug‘liklar etishmaydi; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saralash, kalibrlash, chiroyli qadoqlash va dizaynni yaxshilash imkoniyatlaridan etarli foydalanilmayapti; oziq-ovqatlarni yil davomida kerakli temperaturada saqlab turishga imkon beruvchi sovutkichli omborlar sig‘imi talabni qondirish uchun etarli emas; oziq-ovqat mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga etkazib berishda transport-logistika tizimlari etarlicha rivojlanmagan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va chuqur qayta ishlash tizimini rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini rayonlashtirish va har bir hududning tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlariga mos keluvchi navlarni joylashtirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish; oziq-ovqat mahsulotlarini daladan dasturxonga etkazib berishdagi nobudnarchiliklarni oldini olish; agrar ishlab chiqarish sohasini modernizatsiyalash, texnik-texnologik qayta jihozlash va intensiv texnologiyalardan foydalanish darajasini keskin oshirish; g‘alladan bo‘shagan maydonlarda ikkilamchi ekin sifatida ozq-ovqat etishtirishni kengaytirish; yosh bog‘lar va tokzorlarning oralariga kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari ekishni tashkil etish, fermer xo‘jaliklari va aholi xonodonlarida issiqxonalar tarmog‘ini kengaytirish, ayniqsa suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan kuz, qish va erta bahor oylarida issiqxonalarda meva-sabzavotlar etishtirishni ko‘paytirish; tog‘ va tog‘oldi hududlarda xandon pista va bodom etishtirishni yo‘lga qo‘yish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan zamонавиy korxonalar tarmog‘ini kengaytirishga yo‘naltirilgan maqsadli davlat dasturlarini muntazam amalga oshirish; oziq-ovqatlarni saqlashda muzlatkichli omborlar va iste’molchilarga etkazib berishda transport-logistika tarmoqlarini kengaytirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saralash, kalibrlash, chiroyli qadoqlash va dizaynni yaxshilash ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish; oziq-ovqat mahsulotlari sifatini jahon andozalari darajasiga etkazish; fermer xo‘jaliklari hamda qayta ishlash

20-May, 2025-yil

korxonalariga zamonaviy texnikalar xarid etish uchun imtiyozli kreditlar berishni kengaytirish hamda bu sohaga ichki va xorijiy investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1 . World bank, 1986. Poverty and Hunger: Issues and Options for Food Security in Developing Countries. Washington DC. <http://www-wds.worldbank.org>. P. 20.
2. Шагайда Н., Узун В. Продовольственная безопасность: проблемы оценки// Вопросы экономики. 2015. № 5. С. -64-65.
3. Global Hunger Index (GHI), (2023). Global Hunger Index scores by 2023 GHI rank. www.globalhungerindex.org.
4. www.uzbekistan24.uz/ru/novosti/16/1920.

